Mazkur holatlar tarjima jarayonida semantik ekvivalentlik ustuvorlik kasb etishini, biroq stilistik ekvivalentlik har doim ham to'liq saqlanmasligini ko'rsatadi. Holbuki, psixologik tasvirni adekvat yetkazishda aynan stilistik qatlam muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvopoetik yondashuv shuni ko'rsatadiki, badiiy tarjimada faqat mazmunni qayta yaratish yetarli emas, balki matnning psixologik-estetik ta'sirini hosil qiluvchi til birliklarini ham maksimal darajada saqlash zarur. Ichki monolog, metafora, takror va emotsional leksika qahramon ruhiy olamini modellashtiruvchi asosiy komponentlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu birliklarning adekvat berilishi o'quvchining empatik qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari badiiy tarjimada lingvopoetik ekvivalentlikni ta'minlash kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi. Tarjimon nafaqat semantik mazmunni, balki nutq ritmi, emotsional tonallik va individual uslubni ham qayta yaratishi zarur. Ayniqsa o'smirlar psixologiyasini ifodalovchi matnlarda ichki nutqning tabiiyligi, sintaktik fragmentatsiya va semantik noaniqlik elementlarini saqlash muhim hisoblanadi. Shunday qilib, Hosseini romanlarining o'zbek tilidagi tarjimalari umumiy mazmuniy adekvatlikni ta'minlagan bo'lsa-da, lingvopoetik darajada ayrim transformatsiyalar kuzatiladi. Kelgusida badiiy tarjimada psixologik diskursni qayta yaratish muammosini lingvokognitiv, pragmatik hamda stilistik yondashuvlar asosida yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir. Lingvopoetik tahlil tarjima sifatini baholashda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi hamda badiiy matnning estetik qimmatini saqlash imkonini beradi.

Rezyume. Mazkur tadqiqotda Khaled Hosseini qalamiga mansub Shamol ortidan yugurib, Ming quyosh shu'lasi hamda Tog'lar ham sado beradi romanlarining o'zbek tiliga tarjimalarida o'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodalanish xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ichki monolog, metafora, emotsional-ekspressiv birliklar hamda psixologik diskurs vositalari tarjimada asosan semantik jihatdan saqlangan bo'lsa-da, ayrim hollarda sintaktik normallashtirish va stilistik modifikatsiyalar kuzatiladi. Ichki monologning fragmentar tuzilishi ko'pincha izchil grammatik konstruktsiyalar bilan almashtirilganligi sababli psixologik intensivlik darajasi qisman pasaygan. Shuningdek, emotsional tasvirni ifodalovchi metaforik modellar tarjimada asosan adekvat berilgan bo'lsa-da, ayrim obrazlarning konnotativ salmog'i neytrallashgan. Lingvopoetik tahlil natijalari badiiy tarjimada ekvivalentlik faqat mazmuniy moslik bilan cheklanmasdan, balki stilistik va pragmatik muvofiqlikni ham talab qilishini ko'rsatadi. O'smirlar psixologiyasini ifodalovchi matnlarda ichki nutq ritmi, semantik noaniqlik, emotsional tonallik va individual nutq xususiyatlarini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari lingvopoetik yondashuv badiiy tarjima sifatini baholashda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Psixologik diskursni adekvat qayta yaratish tarjimonning stilistik sezgirligi hamda badiiy tafakkurni rekonstruksiya qilish qobiliyatiga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Resume. The article examines the linguopoetic representation of adolescent psychology in the Uzbek translations of Khaled Hosseini's novels *The Kite Runner*, *A Thousand Splendid Suns* and *And the Mountains Echoed*. The study reveals that inner monologue, emotional vocabulary and metaphorical imagery are generally preserved at the semantic level, though certain stylistic transformations occur in translation. Fragmented syntactic structures typical of inner speech are frequently normalized, which may reduce the intensity of psychological expression. The research shows that achieving equivalence in literary translation requires not only semantic accuracy but also stylistic and pragmatic correspondence. The preservation of emotional tonality, narrative rhythm and individual speech characteristics is especially important when translating texts that reflect adolescent psychological development. Linguopoetic analysis proves to be an effective methodological framework for evaluating the adequacy of literary translation and for preserving the aesthetic value of the original text.

Резюме. В статье анализируется лингвопоэтическое выражение подростковой психологии в узбекских переводах романов Халеда Хоссейни *Бегущий за ветром*, *Тысяча сияющих солнц* и *И эхо летит по горам*. Результаты исследования показывают, что внутренний монолог, эмоционально-экспрессивная лексика и метафорические образы в целом сохраняются на семантическом уровне, одна-

ко в процессе перевода наблюдаются определённые стилистические трансформации. Фрагментарная структура внутренней речи часто заменяется нормативными синтаксическими конструкциями, что приводит к частичному снижению психологической выразительности. Установлено, что эквивалентность художественного перевода предполагает не только точность передачи содержания, но и сохранение стилистических и прагматических характеристик текста. Передача эмоциональной тональности, ритма внутренней речи и индивидуальных особенностей дискурса играет важную роль в репрезентации подростковой психологии. Лингвопоэтический анализ выступает эффективной методологической основой для оценки качества художественного перевода и сохранения эстетической ценности оригинала.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDAGI SO‘ROQ OLMOSHLARI VA SO‘ROQ YUKLAMALARINING INGLIZ TILIDAGISI BILAN QIYOSI

Raxmatova Gulnoza Isoxonovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

Har qanday tilda so‘roq gaplar axborot olish, aniqlashtirish va muloqotni davom ettirishda muhim vosita hisoblanadi. So‘roq ma’nosi grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanadi. O‘zbek va ingliz tillarida so‘roq ma’nosini ifodalashda o‘xshash jihatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning tuzilishi va qo‘llanishida sezilarli farqlar ham kuzatiladi. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi so‘roq olmoshlari va so‘roq yuklamalari ingliz tilidagi mos birliklar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. So‘roq yuklamalari yordamida hosil qilingan gaplarning javobi har doim ham tasdiq yoki inkor shaklida bo‘lavermaydi. Bu munosabat bilan « Ўзбек тили стилистикаси» kitobining mualliflari quyidagilarni yozganlar: « So‘roq yuklamalari orqali hosil qilingan so‘roq gaplarning javobi hamma vaqt ham tasdiq yoki inkor (ha, yo‘q) formalarida bo‘lavermaydi. Ba’zan javobda ha, yo‘q so‘zlarini qo‘llab bo‘lmaydi: Umuman, ular bilishi kerakmi-yo‘qmi? (O‘. U.) Bu nima? O‘ngimmi yoki tushimmi? (P. T.) O‘qiysanmi yoki ishlaysanmi? Yana dam olasanmi yo bo‘ldimi?

Ba’zan suhbatdosh tasdiqlash yoki inkor qilish o‘rniga so‘roq beradi. Bu tip gaplar javob-so‘roq gap hisoblanadi[1].

O‘zbek va ingliz tillarida so‘roq olmoshlari noma’lum shaxs, predmet, belgi, miqdor yoki sabab haqida ma’lumot so‘rash uchun qo‘llanadi. Asosiy so‘roq olmoshlari quyidagilar: *kim- who, nima- what, qaysi- which, qanday-how, qancha- how many(much), nechta-how many, qachon-when, qayer-where, nega / nima uchun-why.*

Grammatik xususiyatlari har ikki tilda o‘xshash va o‘ziga xosliklarga ega. O‘zbek tilida so‘roq olmoshlari kelishik qo‘shimchalarini qabul qilsa ingliz tilida kelishik kategoriyasi cheklangan bo‘lib uning vazifasini predloglar bajaradi: Masalan:

***Kimni** kutmoqdasiz? → «**Who** are you waiting **for**?»*

Bu yerda *«-ni»* ingliz tilida predlog *for* bilan ifodalanadi.

*Kitobni **qayerga** qo‘ydingiz? → «**Where** did you put the book **on**?»*

Bu jumlada esa kelishik qo‘shimchasi vazifasini on predlogi bajaradi.

Gapda so‘roq olmoshlari o‘zbek va ingliz tillarida ega, to‘ldiruvchi hol vazifalarida kelib turli sintaktik vazifalarni bajaradi:

Ega: ***Kim** kelmoqda? → **Who** is coming?*

[1] Yoqubova Y. A. Badiiy matnda so ‘roq gaplar lingvopoetikasi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 7. – PP. 239-245.

To‘ldiruvchi: ***Kimni*** *ko‘rdingiz? →* ***Whom*** *did you see?*

Hol: ***Qachon*** *uchrashamiz? →****When*** *will we meet?(harakat holi)*

Qayerda *stansiya? →* ***Where*** *is the station?*

Ingliz tilida so‘roq olmoshlari o‘zbek tilidagidek gap tarkibining turli qismlarida emas balki har doim gap boshida keladi va yordamchi fe’l ***«do»*** yordamida yasaladi. Masalan: ***Who*** *came? →* ***Kim*** *keldi* Yoki ***What*** *did you buy*? *→****Nima*** *sotib oldingiz?*

Sen qayerda yashaysan? → ***Where do*** *you live?*

Bu yerda ingliz tilida *do* yordamchi fe’li ishlatiladi, o‘zbek tilida esa bunday vosita mavjud emas. So‘roq olmoshlari har ikki tilda o‘ziga xos jihatlari bo‘lishiga qaramasdan o‘xshashliklari ham mavjud. Har ikkala tilda ham so‘roq olmoshlari noma’lum ma’lumotni aniqlash uchun xizmat qiladi. Masalan:»Kim?» – *who, «Nima?» – what, «Qayer?» – where* kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri moslik mavjud.

O‘zbek tilida so‘roq yuklamalari gapga so‘roq yoki gumon ma’nosi yuklaydi: *mi,(mu),-a, -ya, -da, -ku, nahotki, xo‘sh*» yordamida tuziladigan so‘roq gaplar o‘zbek tilida ko‘pincha tasdiqni tekshirish, hayrat, gumon yoki ta’kid ma’nosini beradi. Ingliz tilida bular odatda *tag questions,yes/no questions, intonatsiya, elliptical question (incomplete question), really, is it?, don’t you*? kabi vositalar bilan ifodalanadi.Quyidagi misollar vositasida ushbu yuklamalar har ikki tilda qanday berilishini ko‘rib boramiz:

*Ey shayx, sizda shu narsa zohir bo‘lgan****mi****? O‘zingizda huni tekshirib ko‘rgan****mi****siz?- deb so‘radi.*[1]*→»O Sheikh, have you experienced this yourself? Have you tested it within yourself?» he asked. (yes/no questions yordamida).* Bunday tipdagi so‘roq gaplarda -mi yuklamasining qo‘llanishi ba’zi xususiyatlarga ega: a) bu yuklamani olgan bo‘lak doim so‘roq obyektini, ya’ni mazmun jihatidan birinchi o‘rinda bo‘lgan narsani anglatavermaydi. Ba’zan so‘roq boshqa elementda, -mi yuklamasini olmagan so‘zda bo‘lib, bu narsa logik urg‘u orqali bildiriladi.[2]

*Ey, mening bu so‘zimdin hayron va diltang bo‘lding****mu****?*[3]*→* «Oh, did my words surprise and upset you?»(Intonatsiya+do fe’li yordamida)

Avvallari bunaqa tabassum qilmas eding-ku?[4]*→You did not use to smile like that before, did you? (tag question)*

Salom berib, sekingina poygakda cho‘kka tushib o‘tirdim.

-Xo‘sh?!

-Shunday o‘zim, sizni sog’inib, bir ko‘rib kelay, deb kelgan edim.[5] *→After greeting him, I quietly knelt by the doorway.* ***– Well?!*** *– I just came because I missed you and wanted to see you.(elliptical question (tugallanmagan so‘roq gap)yordamida)*

Iyya?!*- dedi boy.*[6]*→****Really?!*** *said the rich man(-really yordamida)*

Yettita qo‘yga ikkalamiz ikki xil xizmat qilsak ham qutula olmaymiz-ku?[7]*→ Even if both of us work hard looking after the seven sheep, we still can’t cope with them, can we? (tag questions yordamida)*

*Sen kelasan-****a?****→* You are coming, **aren’t you**? (tag questions yordamida)

«-da» (ta’kid + tasdiq kutish) Masalan: *Sen buni bilasan****da****?→ You know this,* ***don’t you****?*

U keladida?→ He will come, won’t he?

Bu osonda?→ It’s easy, isn’t it?

Nahotki, *odamlar shunchalik tez bir-birini unutsa?*[8]*→* ***Can it really be that*** *people forget each other so quickly?* (*Can it really be that yordamida. H*ayrat, ishonmaslik)

Ingliz tilida *nahotki so‘roq yuklamasini ifodalash uchun* ko‘pincha *really, can it be, is it possible* kabi iboralar ishlatiladi. Tarjima jarayonida «nahot(ki)» ning ma’nosi ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri grammatik ekvivalent orqali emas, balki modal-pragmatik ekvivalentlar orqali beriladi. Bu esa ikki til tizimida so‘roq va modallikni ifodalash vositalarining turlicha ekanligini ko‘rsatadi: o‘zbek tilida bu vazifa ko‘pincha yuklama orqali bajarilsa, ingliz tilida esa modal so‘zlar, yordamchi fe’llar va intonatsiya orqali ifodalanadi.[9]

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillarida so‘roq ma’nosini ifodalashda umumiy funksional o‘xshashlik mavjud bo‘lsa-da, grammatik mexanizmlar turlicha. O‘zbek tilida so‘roq olmoshlari kelishik qo‘shimchalarini qabul qilishi va so‘z tartibining erkinligi bilan ajralib turadi. Ingliz tilida esa qat’iy so‘z tartibi va yordamchi fe’llarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. So‘roq yuklamalari masalasida esa

[1] Umarov Sh. Imom Buxoriy ta’rifi. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2024.- B.31.

[2] G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis: oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun darslik. – Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashr. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1965. – B. 61.

[3] Kaykovus. Qobusnoma. Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B.36.

[4] Fyodor Dostoyevskiy. Xo‘rlanganlar va haqoratlanganlar/roman/ruschadan Habiba Ziyoxonova tarjimasi/ Jahon adabiyoti turkumi. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B.128.

[5] G’afur G’ulom.Shum bola: qissa. – Toshkent:Yangi nashr, 2019. – B. 61.

[6] G’afur G’ulom.Shum bola: qissa. – Toshkent:Yangi nashr, 2019. – B. 61.

[7] G’afur G’ulom.Shum bola: qissa. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – B. 61.

[8] Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B.34.

1. 9 Rasulova X., Mirzayeva F. Simple interrogative sentences sodda so‘roq gap //Academic research in educational sciences. – 2025. – T. 6. – №. NUU Conference Students. – PP. 480-484.

o‘zbek tilidagi *mi,(mu),-a, -ya, -da, -ku, nahotki, xo‘sh* yuklamasi ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega emas, balki yordamchi fe’l, o‘rnini bosuvchi so‘zlar, tag va yes/no questions turlari hamda inversiya orqali ifodalanadi.

Rezyume. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi so‘roq olmoshlari va so‘roq yuklamalarining grammatik xususiyatlari hamda ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida o‘zbek tilida qo‘llaniladigan «kim», «nima», «qachon», «qayer», «nega», «qanday» kabi so‘roq olmoshlari hamda «-mi», «-chi», «-a» kabi so‘roq yuklamalarining vazifalari o‘rganiladi. Shuningdek, ingliz tilidagi «who», «what», «when», «where», «why», «how» kabi so‘roq so‘zlari bilan ularning grammatik va semantik jihatdan o‘xshash va farqli tomonlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida ikki til o‘rtasidagi so‘roq shakllarining tuzilishi, qo‘llanishi va ma’no ifodalashidagi umumiyliklar hamda farqlar aniqlanadi.

Резюме. В данной статье рассматриваются грамматические особенности вопросительных местоимений и вопросительных частиц в узбекском языке, а также проводится их сравнительный анализ с соответствующими единицами английского языка. В ходе исследования анализируются такие вопросительные местоимения узбекского языка, как «kim», «nima», «qachon», «qayer», «nega», «qanday», а также вопросительные частицы «-mi», «-chi», «-a». Кроме того, выявляются сходства и различия в их грамматическом и семантическом употреблении по сравнению с английскими вопросительными словами «who», «what», «when», «where», «why», «how». Результаты исследования позволяют определить общие и отличительные особенности построения и употребления вопросительных конструкций в двух языках.

Resume. This article analyzes the grammatical features of interrogative pronouns and interrogative particles in the Uzbek language and compares them with their equivalents in the English language. The study examines Uzbek interrogative pronouns such as «kim», «nima», «qachon», «qayer», «nega», and «qanday», as well as interrogative particles like «-mi», «-chi», and «-a». It also highlights the similarities and differences between these forms and English interrogative words such as «who», «what», «when», «where», «why», and «how». The results of the study reveal both common and distinctive features in the structure, usage, and meaning of interrogative constructions in the two languages.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

G'AFUR G'ULOMNING «SHUM BOLA» ASARIDA YUMORNING BADIIY FUNKSIYALARINING LINGVISTIK JIHATLARI

Berdiyeva Sitora Utkerovna
Osiyo xalqaro universiteti tayanch-doktoranti

Badiiy adabiyotda yumor inson tafakkuri va ijtimoiy hayotidagi ziddiyatlarni ifodalashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Yumor voqelikni kulgi orqali idrok etish imkonini berib, muallifning estetik munosabatini ifodalaydi. O'zbek adabiyotida yumor ko'pincha hajv, kinoya, mubolag'a, so'z o'yini va xalqona obrazlilik bilan uyg'unlashib, milliy badiiy tafakkurning o'ziga xos jihatini namoyon etadi.

Mazkur maqolada G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasida yumorning lingvistik ifodalanish usullari hamda uning badiiy funksiyalari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida yumorning leksik-semantik, stilistik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari aniqlanib, ushbu vositalarning asarning umumiy estetik ta'sirini shakllantirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Xususan, qissada qo'llangan mubolag'a, kinoya, so'z o'yini, metaforik ifodalar, dialogik nutq elementlari va xalqona iboralarning komik effekt hosil qilishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Shuningdek, yumor vositasida obraz xarakterining individual xususiyatlari ochilishi, qahramonning nutqiy portreti shakllanishi hamda bolalar psixologiyasiga xos sodda, ba'zan esa paradoksal tafakkur orqali kulgili vaziyatlarning yuzaga kelishi masalalari ko'rib chiqiladi. Asarda kulgi ko'pincha ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar, tengsizlik, turmush qiyinchiliklari hamda ma'naviy qadriyatlar tizimini bilvosita yoritish vositasi sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi[1].

G'afur G'ulomning «Shum bola»[2] qissasi o'zbek nasrida yumorning lingvistik va badiiy imkoniyatlari yorqin aks etgan asarlardan biridir. Asarda kulgi oddiy maqsad emas, balki jamiyatdagi muammolarni ko'rsatish, bolalik psixologiyasini ochish hamda ijtimoiy tengsizlikni tanqid qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shum bolaning nutqi, kuzatuvlari va vaziyatlarga munosabati orqali yuzaga kelgan yumor matnning badiiy ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi «Shum bola» asarida yumorning lingvistik vositalar orqali qanday yaratilishini hamda uning badiiy funksiyalarini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqolada G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasida yumorning lingvistik ifodalanish xususiyatlari kompleks filologik metodlar asosida o'rganildi. Lingvistik, kontekstual, pragmatik va lingvokulturologik tahlillar yordamida so'z o'yini, mubolag'a, kinoya hamda milliy-madaniy realiyalar orqali yuzaga kelgan komik effekt va uning badiiy funksiyalari yoritildi.

Tilshunoslikda yumor murakkab va ko'p qatlamli hodisa sifatida talqin qilinib, u ko'pincha semantik nomuvofiqlik (inkongruentlik), kutilmagan ma'no siljishi yoki mantiqiy zidlik natijasida yuzaga keladigan kommunikativ effekt bilan izohlanadi. Nutq jarayonida tinglovchi yoki o'quvchi muayyan mantiqiy davomiylikni kutadi, biroq kutilgan mazmun bilan real mazmun o'rtasida tafovut yuzaga kelganda kulgili holat paydo bo'ladi. Mazkur tafovut ko'pincha til birliklarining noodatiy qo'llanishi, ma'no qatlamlarining to'qnashuvi yoki kontekstda yuzaga kelgan semantik qarama-qarshiliklar bilan bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan yumor tilning nafaqat nominativ, balki ekspressiv va pragmatik imkoniyatlarini ham namoyon etuvchi hodisa hisoblanadi[3].

Yumorning lingvistik tabiati, avvalo, til birliklarining ko'p ma'noliligi bilan chambarchas bog'liqdir. Polisemiya nutqda ma'no o'yinini yuzaga keltirib, bir birlikning bir nechta semantik qirralari o'rtasida kutilmagan bog'lanish hosil qiladi. Natijada so'z yoki ibora odatiy ma'nosidan farqli ravishda qo'llanib, kulgili effekt yuzaga keladi. So'z o'yini (kalambur) ham yumorning muhim vositalaridan biri bo'lib, unda fonetik o'xshashlik yoki semantik yaqinlik asosida ikki xil ma'no o'rtasida assotsiativ aloqa yuzaga keladi. Bunday holat nutqda semantik noaniqlik hosil qilib, kulgi uyg'otadi[4].

[1] Karimov B. O'zbek nasrida yumor va bola obrazi // O'zbek tili va adabiyoti, 2010. – B. 45–52.
[2] G'ulom G'. Shum bola. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. – 152 b.
[3] Rasulov I. O'zbek adabiyotida kulgi va satira. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2015. – B. 46.
4 Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – B. 73.

Mubolag‘a yumorning eng faol lingvistik vositalaridan biri sifatida hodisa yoki belgining bo‘rttirib tasvirlanishiga asoslanadi. Real voqelikning me’yoridan ortiq darajada ifodalanishi natijasida obrazning kulgili ko‘rinishi yuzaga keladi. Kinoya esa yashirin baho berish vositasi sifatida yumorning muhim shakllaridan biri bo‘lib, unda aytilgan fikr bilan nazarda tutilgan mazmun o‘rtasida ziddiyat mavjud bo‘ladi. Kinoyaviy ifoda orqali muallif yoki nutq subyekti voqelikka bilvosita munosabat bildiradi, bu esa kulgi bilan birga tanqidiy ma’no yukini ham yuzaga chiqaradi.

«Shum bola» asarida yumorning leksik-semantik ifodasi

G‘afur G‘ulomning «Shum bola» qissasida yumor asosan tilning leksik-semantik imkoniyatlari orqali yuzaga keladi. Muallif xalqona nutq unsurlari, obrazli ifodalar hamda kundalik hayotga xos so‘z va iboralarni o‘ziga xos kontekstda qo‘llash orqali tabiiy va samimiy kulgi hosil qiladi. Asardagi yumor sun’iy yaratilgan effekt emas, balki qahramonlarning nutqi, dunyoqarashi va voqelikni idrok etish usuli bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Ayniqsa, xalq og‘zaki nutqiga xos sodda, ba’zan kinoyaviy mazmunga ega iboralar, maqolga yaqin ifodalar, maishiy tasvir elementlari kulgining tabiiyligini ta’minlaydi. Bunday til birliklari qahramonlarning ijtimoiy muhitini real ko‘rsatish bilan birga, matnda samimiylik va jonlilikni kuchaytiradi.

Asarda mubolag‘a yumorning eng faol vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Qahramon tomonidan voqea-hodisalarning orttirilgan holda tasvirlanishi natijasida kulgili vaziyat yuzaga keladi. Masalan, oddiy holatning haddan tashqari kattalashtirib ko‘rsatilishi yoki muayyan harakatning ortiqcha dramatik talqin qilinishi orqali komik effekt hosil qilinadi. Mubolag‘a ko‘pincha bolalar tafakkuriga xos bo‘lgan tasavvur kengligi bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Natijada voqelik subyektiv idrok asosida bo‘rttiriladi va bu holat o‘quvchida kulgi uyg‘otadi. Shu bilan birga, mubolag‘a qahramon xarakterining hissiy ta’sirchanligini ko‘rsatishga xizmat qiladi[1].

Leksik-semantik jihatdan yumor ko‘pincha so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi orqali ham yuzaga keladi. Muallif ma’lum bir so‘zning odatiy ma’nosini o‘zgartirib, uni noodatiy kontekstga joylashtiradi. Buning natijasida semantik siljish yuz beradi va nutqda kutilmagan mazmun paydo bo‘ladi. Bunday semantik nomuvofiqlik kulgining asosiy manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ayrim hollarda bir so‘zning bir vaqtning o‘zida ikki xil ma’noni anglatishi yoki iboraning kontekstga mos ravishda yangicha talqin qilinishi komik effektni kuchaytiradi.

Asarda so‘z o‘yini elementlari ham uchrab, ular nutqning mazmuniy ko‘p qatlamliligini ta’minlaydi. Fonetik o‘xshashlik yoki semantik yaqinlik asosida hosil qilingan ifodalar qahramon nutqiga jonlilik bag‘ishlaydi. Bunday birliklar ko‘pincha dialoglarda namoyon bo‘lib, qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarning samimiyligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kulgi nutqiy vaziyatning tabiiy rivojidan kelib chiqadi, ya’ni u alohida badiiy vosita sifatida emas, balki kommunikativ jarayonning tabiiy natijasi sifatida shakllanadi.

Frazeologik birliklarning o‘ziga xos qo‘llanishi ham leksik-semantik yumorning muhim ko‘rinishlaridan biridir. Xalq tilida keng qo‘llanadigan iboralar matn tarkibida ba’zan yangicha semantik tus oladi yoki kutilmagan vaziyatda ishlatiladi. Natijada iboraning an’anaviy ma’nosi bilan kontekstda yuzaga kelgan yangi ma’no o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ladi. Bu esa o‘quvchida kulgi uyg‘otadi. Shuningdek, xalqona iboralarning qo‘llanishi asarga milliy kolorit bag‘ishlaydi va qahramon nutqining tabiiyligini ta’minlaydi.

Muallif ayrim holatlarda oddiy predmet yoki hodisani noodatiy tarzda tasvirlab, obrazli ifodalar orqali kulgili manzara yaratadi. Metaforik ifodalar yoki kutilmagan o‘xshatishlar natijasida tasvirning ekspressivligi ortadi. Bunday ifodalar o‘quvchi tasavvurida yorqin obraz hosil qilib, kulgi bilan birga estetik zavq ham uyg‘otadi. Ayniqsa, bolalar dunyoqarashiga xos sodda va bevosita baholash mezonlari asosida yaratilgan metaforalar o‘zining samimiyligi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, «Shum bola» asarida yumorning leksik-semantik ifodasi til birliklarining ko‘p funksiyali xususiyatlariga asoslanadi. So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, semantik nomuvofiqlik, mubolag‘a, xalqona iboralar hamda obrazli ifodalar kulgining yuzaga kelishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu vositalar matnning emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligini oshirib, asarning badiiy ta’sirchanligini kuchaytiradi. Natijada yumor qahramon xarakterini ochish, voqelikni baholash hamda muallifning estetik munosabatini ifodalashda muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Rezyume. Ushbu maqolada G‘afur G‘ulomning «Shum bola» asarida yumorning leksik-semantik, stilistik,

1 Rasulov I. O‘zbek adabiyotida kulgi va satira. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2015. – B. 34.

pragmatik va lingvokulturologik vositalar orqali qanday yaratilishi hamda uning obraz yaratish, estetik ta'sirni kuchaytirish va ijtimoiy mazmunni ifodalashdagi badiiy funksiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Resume. This article provides a scholarly analysis of the linguistic mechanisms of humor in Gafur Gulam's «Shum bola», focusing on its lexical-semantic, stylistic, pragmatic, and linguocultural features, as well as examining the artistic functions of humor in character construction, enhancing aesthetic effect, and expressing the social meaning of the text.

Резюме. В данной статье научно анализируются лингвистические механизмы создания юмора в произведении Гафура Гуляма «Шум бола», включая его лексико-семантические, стилистические, прагматические и лингвокультурологические особенности, а также рассматриваются художественные функции юмора в формировании образов, усилении эстетического воздействия и выражении социального содержания текста.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FARG'ONA VODIYSI SHEVALARINING O'RGANILISHI

Raxmonova Dilzodaxon,
Farg'ona davlat universiteti magistrant talabasi

Farg'ona vodiysi o'zbek xalqi va uning tili shakllanishida eng muhim markazlardan biri hisoblanadi. Ashurali Zohiriy adabiy til uchun tayanch dialekt haqida gapirar ekan, Farg'ona shevasini taklif qiladi, hozir qo'llanilayotgan yozma til aynan Farg'ona shevasi ekanini aytadi: «Adabiyotimizning asosi jonli til (xalq adabiyoti) bo'lishi lozim, dedik. Shundoq bo'lg'ach, men Farg'ona (vodiysi) shevasini taqdim etsam, xato qilmag'an bo'lurmen. Bunda «qo'ng'uz oppog'im», «kirpi yumshag'im der» degandak bo'ldi, deb mendan kulmasdan, balki so'zimni quvvatlaydurg'anlar ko'brak bo'lur. Chunki bu kungi o'zbak adabiyotining 17 (basma so'zining) tili (undag'i ba'zi bir mahalliychilikni e'tibarg'a almag'animizda) Farg'ana shevasining o'zidur. Shevaning o'zi basma so'zni va uning tevaragidagi amillarni tabiiy ravishda o'ziga tartqan. Endi biz uning ichiga bashvaqsizliq yaki mahalliychilik ta'siri astida kirib qalg'an va qaladurg'an so'zlar to'g'risida bir fikrga kelib alsaq, ham yana tag'in saddalashtirish, xalqqa yaqinlatish, ishchi, dehqan ammasi ichidan aling'an so'zlar bilan bayitish charasini ko'rsak bo'ldi»[1]. Mazkur hududda o'zbek tili shevalarining xilma-xilligi va ularning o'ziga xos dialektal xususiyatlari bevosita vodiydagi uzoq davom etgan murakkab etnik jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Bu hududdagi turkiy xalqlar turli urug' va qabila vakillaridan bo'lgan. Bu haqida professor A.Y.Yakubivskiy shunday deydi: «VIII asr boshlarida bu yerda (Farg'onada) turk aholisining hukmron bo'lganligi haqida shubhalanib bo'lmaydi. Qoraxoniylar qo'shini sostavida, yettisuvdagi hamma turk qabila va xalqlari, ya'ni arg'u , tuxsi, qorliq, chigil, yag'ma va boshqa xalqlar bo'lgan bo'lsa kerak. Biroq, XI-XIII asrlardagi yozma manbalarga qaraganda, Qoraxoniy xonlari zamonida O'zbekiston tuprog'ida qorliqlar bilan birga chigillar bosh rolni o'ynaganlar. Ammo turk elementlarining O'zbekiston tuprog'iga qarashlari shu nomlari ko'rsatilgan qabilalar bilan cheklanmaydi. Sirdaryo tomonlaridan belgili miqdorda o'g'uzlar, ular orasidan qipchoqlar siljib keladilar[2].

Ma'lumki, turklashish dastlab turk tili va nutqining g'alaba qozonishida ifodalanadi. «Turk tilida so'zlashuvchi xalqlar, ayniqsa, Farg'ona va Shoshda juda tez shakllandiki, XIII asrning 20-yillarida

[1] Ашурали Зоҳирий. Тил, атама ва имло баҳслари // Қизил Ўзбекистон. – Тошкент, 1929, 30-31-март.
[2] Якубовский А. Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. – Тошкент, 1941. – Б. 10.

mo‘g‘ullar O‘zbekiston aholisi sostaviga hokim element sifatida kirgan vaqtlarda hamma yerda turk tili va nutqiga duch kelganlar. Umuman mo‘g‘ullar zamonida Farg‘onadagi talay shaharlar turk shahariga aylandi… Shosh va ayniqsa, Sirdaryoning quyi oqimidagi viloyatlarda joylashgan ba’zi bir shaharlarning ham aholisi turklar edi»[1].

Z.M.Bobur Farg‘ona aholisining XV asr oxiridagi etnik sostavi haqida ma’lumotlar berar ekan, bu vodiyning aholisi turklar va sartlardan iborat degan fikrni aytadi[2].

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi ko‘chmanchi turklar-o‘zbeklarning O‘zbekistonni bosib olishlari natijasida Farg‘ona vodiysidagi bu ikki etnik guruhga uchinchi etnik guruh - qipchoqlar kelib qo‘shildi.

Undan keyingi davrlarda esa Farg‘ona vodiysining aholisi qirg‘iz, qipchoq, tojik va uyg‘ur ko‘chmanchilarining hisobiga ortib bordi. Bu esa Qo‘qon xonligi aholisining etnik jihatdan turlicha bo‘linishiga olib keldi. Lekin shunga qaramasdan, Farg‘ona vodiysining markaziy qismida o‘zbeklar o‘rnashib oldi.

Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona vodiysining etnik manzarasi ko‘p qatlamli bo‘lib, bu bevosita zamonaviy o‘zbek tili shevalarining uchta yirik lahjasi (qarluq, qipchoq va o‘g‘uz) ushbu hududda o‘zaro integratsiyalashuviga olib kelgan. Yakubovskiy ta’kidlaganidek, qoraxoniylar davrida chigil va qarluqlarning hukmronligi Farg‘onada bugungi o‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan «o»lovchi (shahar) shevalarining barqarorlashishiga zamin yaratgan. XII asrga kelib kelib turk nutqining to‘liq g‘alabasi shaharlardagi o‘troq aholi nutqida qarluq lahjasining dominant bo‘lishini ta’minladi.

Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan manba va tahlillarga tayangan holda Farg‘ona viloyati shevalari yetarlicha va mukammal o‘rganilmaganligini, materiallar kamligini aytib o‘tishimiz mumkin. Xususan, 1957-yilda Professor Sh.Shoabdurahmonov tomonidan Qo‘qon shevasining ba’zi bir fonetik xususiyatlariga doir chiqargan maqolasini dastlabki ishlardan deb ko‘ra olamiz. O‘zbek tili shevalarining, ayniqsa, markaziy shahar shevalarining o‘zlariga xos xususiyatlarini atroflicha ilmiy asosda o‘rganish hozirgi kunda nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Bunday ilmiy tekshirish ishlari o‘zbek adabiy tiliga tayanch bo‘lgan shevalarni va ular orasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilab turish uchun ham, shuningdek, o‘zbek milliy tiliga asos bo‘lgan shevalarni tayinlab berish uchun ham muhimdir. Bilamizki, Qo‘qon shevalari boshqa shevalardan, shuningdek, Farg‘ona tip shevalaridan ham o‘zining ba’zi bir dialektal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu sheva leksik, morfologik va shu bilan birga fonetik o‘ziga xosliklarga ham egadir.[3]

Ushbu maqolada tilshunos olim Qo‘qon shevasining unlilar va undoshlar tarkibi, tasnifi va xususiyatlari hamda ular bilan bog‘liq ayrim fonetik hodisalarni berib o‘tgan.

Qo‘qon shevasi haqida gap ketar ekan, Sh.Nosirovning «O‘zbek tilining Qo‘qon shevasi» nomli monografiyasi ham bu sheva fonetikasi va morfologiyasiga oid qimmatli ma’lumotlarni beradi. Ushbu monografiyada Qo‘qon shevasining fonetik va morfologik xususiyatlari Qo‘qon grupa shevalari va boshqa o‘zbek shevalari bilan qiyosiy tarzda yoritib berishga harakat qilingan. Sheva materiallari o‘rni bilan qadimgi yozuv yodgorliklari hamda qardosh turkiy tillar bilan ham qiyos qilingan.

Olim ko‘plab tilshunoslarning unli va undoshlar tasnifidagi masalalariga to‘xtalar ekan, o‘z tekshirishlari davomida Qo‘qon zonasida olti xil unli fonema mavjudligini keltirib o‘tadi va ularning xususiyatlarini ochib beradi. Bular quyidagilar:

ъ у
е о
ə[a] ɔ

Undosh fonemalar haqida esa quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi:

Qo‘qon shevasi undosh fonemalarning soni va sifati jihatidan boshqa y-lovchi shevalar kabi o‘zbek adabiy tiliga yaqin tursa-da, o‘ziga xos ayrim farqlarga ham ega. Ma’lumki, o‘zbek adabiy tilida 25ta undosh fonema bor. Qo‘qon shewvasida esa undosh fonemalar miqdori 22 tadir.

Shevada ф, ц, ж undoshlari qo‘llanmaydi, chunki barcha hollarda ф>н, ц>с ва ж > д ж ga o‘tadi.

Shevada Toshkent shevasidan farqli o‘laroq, chuqur til orqa х va bo‘g‘iz h undoshlari mustaqil fonema sifatida ishlatiladi.

Qo‘qon shevasidagi undosh fonemalar quyidagilar:

1. Lab undoshlari: б, в, п, м.
2. Til oldi undoshlari: т, д, г, д ж (ж), з, с, ш, и, л (л‘), р.
3. Til o‘rta undoshi: й.
4. Sayoz til orqa undoshlari: к, г, нг (нг’)
5. Chuqur til orqa undoshlari: қ, ғ, х
6. Bo‘g‘iz undoshi:ҳ(х)[4]

Monografiyada assimilatsiya, dissimilatsiya, metateza va ayniqsa, o‘zbek shevalarining aksariyatida yo‘qolib borayotgan singarmonizm (unlilar mo-

[1] Якубовский А. Ю. Ўзбек халқининг юзага келиши масаласи ҳақида. – Тошкент, 1941. – Б. 12.
[2] Захириддин Мухаммад Бобир. Бобирнома. – Тощкент, 1960, 81-161-бетлар.
[3] Шоабдураҳмонов Ш. Қўқон шевасининг баъзи бир фонетик хусусиятлари ҳақида. ЎЗДМ, I. – Тошкент, 1957.
[4] Носиров Ш. Ўзбек тилининг Қўқон шеваси. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 35-36.

slashuvi) hodisalarining yoritilishi shevaning o‘ziga xos „ichki tartibi“ borligini ko‘rsatadi. Bu ma’lumotlar o‘zbek tili fonetikasi va fonologiyasi bo‘yicha nazariy qarashlarni boyitadi.

Muallifning sheva materiallarini shunchaki qayd etib qolmasdan, ularni qadimgi yozuv yodgorliklari va boshqa turkiy tillar bilan qiyoslashi tadqiqotning ilmiy vaznini oshirgan. Bu yondashuv Qo‘qon shevasi nafaqat hududiy dialekt, balki turkiy tillar tarixini o‘rganishda jonli manba ekanligini isbotlaydi.

Asarda fonetika bilan birga morfologik sathning ham qamrab olinishi Qo‘qon shevasining to‘liq grammatik modelini yaratishga xizmat qiladi. Bu esa dialektologiya sohasida hududiy nutqning lug‘at boyligi va grammatik qurilishini o‘rganishda metodologik namuna bo‘lib xizmat qiladi.

S.Ibrohimovning «Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi» mavzusidagi tadqiqoti o‘zbek dialektologiyasi va etnolingvistikasining nodir namunalaridan biridir. Ushbu ish nafaqat tilshunoslik, balki etnografiya va xalq tarixi nuqtai nazaridan ham ulkan ilmiy qiymatga ega.

S.Ibrohimov tadqiqotida Farg‘ona vodiysi aholisining an’anaviy turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan uchta yirik soha leksikasini alohida ajratib ko‘rsatadi: tandirchilik atamalari, kulolchilik leksikasi hamda shuvoqchilik atamalari. Ushbu ish shunchaki so‘zlar ro‘yxati (lug‘at) emas, balki etnolingvistik tadqiqotdir. Chunki atamalar orqali hududiy hunarmandchilikning o‘ziga xos maktablari (masalan, Rishton kulolc hiligi) ochib beriladi; o‘zlarning kelib chiqishi (etimologiyasi) hamda ularning qadimgi turkiy tildagi ildizlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi; ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar natijasida iste’moldan chiqib borayotgan arxaik atamalarni saqlab qolishga xizmat qiladi[1].

Rezyume. Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi shevalarining o‘zbek adabiy tili shakllanishidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda hududning etnik manzarasi, xususan, qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining integratsiyalashuvi hamda bu jarayonning jonli nutqqa ta’siri ko‘rib chiqiladi. Ashurali Zohiriy, A.Y.Yakubovskiy va Sh.Nosirov kabi olimlarning ilmiy qarashlariga tayanilgan holda, Qo‘qon shevasining fonetik, morfologik va leksik o‘ziga xosliklari, xususan, undoshlar tizimidagi farqlar va kasb-hunar leksikasi yoritib berilgan.

Resume. This article analyzes the role and significance of the Fergana Valley dialects in the formation of the Uzbek literary language. The study examines the ethnic landscape of the region, specifically the integration of Qarluq, Kipchak, and Oghuz dialects, and the impact of this process on spoken language. Based on the scientific perspectives of scholars such as Ashurali Zohiriy, A.Y.Yakubovskiy, and Sh.Nosirov, the phonetic, morphological, and lexical peculiarities of the Kokand dialect are highlighted, including differences in the consonant system and professional vocabulary.

Резюме. В данной статье анализируется роль и значение диалектов Ферганской долины в формировании узбекского литературного языка. В исследовании рассматривается этническая панорама региона, в частности интеграция карлукского, кипчакского и огузского диалектов, а также влияние этого процесса на живую речь. На основе научных взглядов таких ученых, как Ашурали Захири, А.Ю.Якубовский и Ш.Носиров, освещаются фонетические, морфологические и лексические особенности Кокандского диалекта, в частности различия в системе согласных и профессиональная лексика.

1 С. Иброҳимов. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. Тошкент, 1956.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

YAPON TILIDA OMONIMLARDAN FOYDALANISHDA NUTQIY STRATEGIYALAR

Shamsitdinova Moxinabonu Akbar qizi,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Filologiya va tillarni o'qitish: yapon tili yo'nalishi talabasi

Insonlar o'rtasidagi asosiy muloqot vositasi til va undagi so'zlarning ma'nosi hisoblanadi. Har bir tilning leksik tizimida ma'nosi turli, ammo talaffuzi aynan bo'lgan birliklar mavjud bo'lib ular omonimlar deb ataladi. Omonim nima? Omonim yunon tilidan olingan bo'lib, oputa – ism, nom degan ma'nolarni beradi. Omonimlar orasida semantik aloqa mavjud bo'lmasada bir xil ko'rinishga ega bo'ladi. Omonomiya- omonimlar o'rtasidagi bog'liq hodisalardir.

橋（はし） – ko'prik
箸（はし） – ovqat uchun tayoqchalar
端（はし） – chekka, oxiri
切る（きる） – kesmoq
着る（きる） – kiyish (ustki kiyim)
交渉（こうしょう） – muzokara
高尚（こうしょう） – yuksak, oliyjanob
故障（こうしょう） – buzilish

Misollar shuni ko'rsatadiki, yapon tilida omonimlar juda keng tarqalgan va ularni to'g'ri talqin qilishda nutqiy strategiyalar muhim kommunikativ vosita hisoblanandi.

Yapon tilida olti mingga yaqin omonimlar mavjud, omonimlarning keng tarqalishiga asosiy sabablari tilning fonetik tizimi sodda va bo'g'inlar sonining cheklanganligi, ko'plab xitoy tilidan o'zlashgan so'zlarning va yapon tilida mavjud kanjilarning bir xil talaffuzga ega ekanligidadir. Shu sababdan ham omonimlar muammosi tilshunoslikda muhim masalaladan biri hisoblanadi. Bu masala esa ko'plab mahalliy va xorijiy tilshunos olimlar tomonidan turli jihatlarda tadqiqot ishlari olib borilgan. «Yapon tili va tishunosligi qo'llanmalari» asarining bosh muharriri, yapon tilshunosligi bo'yicha professor Masayoshi Shibatani yapon tilining tipologiyasi va avstroneziyasi bo'yicha tadqiqot olib borib, omonimlarning ko'pligi tilning rivojlanish tarixiga bog'liqligini ta'kidlab, ularni 漢語- kangolar bilan bog'lagan[1]. Natsuko Tsujimura Arizona universiteti tilshunoslik fanlari doktori o'z tadqiqotlarida yapon tilining semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilib, omonimlarni tushunishga kontekst muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi[2]. Omonimlardan foydalanishda tushunmovchilik yuzaga kelmasligi uchun ham omonim joylashgan so'zni undan avvalgi va keyingi so'z va gaplar bilan tahlil qilib, qo'shimchalarga alohida e'tibor qaratish lozimligini aytib o'tadi.

Yapon tilidgi omonimlar muammosini chuqur o'rganib, ilmiy asoslab bergan mashhur olimlardan yana biri *Kindaichi Haruhiko* omonimlarni faqat lingvistik sifatida emas, balki nutqiy va maaniy fenomen sifatida ham ko'rib chiqadi. Uning fikricha, omonimlar yapon tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, ular so'z o'yinlari 駄洒落–だじゃれ (dajare), adabiyot va reklama tilida keng qo'llanadi. Adaiyotlarda shoir va yozuvchilar omonimlar yordamida ikki yoki undan ortiq ma'noga ega iboralrni yaratishadi. Bu esa matnga badiiylik va o'zgacha ma' no beradi. Masalan,

花の色は
うつりにけりな
いたづらに
わが身世(みよ)にふる
ながめせしまに
Hana no iro wa
Utsuri ni keri na
Itazura ni
Waga mi yo ni furu
Nagame seshi ma ni

Ono no Komachi tomonidan yozilgan bu she'rning birinchi misrasida gulning rangi so'lgani, uchib ketgani yozilgan. Lekin shoir bir gap bilan faqatgina gulni emas, majoziy ma'noda yoshlikning o'tib ketishini ham ramziy ifodalaydi. Bu esa badiiy adabiyotda omonimlar orqali matnni chuqurroq o'qib, turli talqinlar qilish mumkinligini isbotlaydi.

Mazkur tadqiqot yapon tilidagi omonimlarning nutqda qo'llanish xususiyatlarini aniqlash hamda ularni to'g'ri talqin qilishda qo'llaniladigan kommunikativ strategiyalarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida omonimlarning semantik tuzilishi va ma'no farqlari chuqur tahlil qilinib, ularning nutq jarayonidagi funksional xususiyatlari o'rganildi. Shu bilan birga, omonimlarning turli kontekstlarda qan-

1 Shibatani M. The Languages of Japan. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 420 p.
2 Tsujimura N. An Introduction to Japanese Linguistics. Oxford: Blackwell Publishing, 1999. – 400 p. (pp. 349–377).

day talqin qilinishi hamda ma’nosining nutqiy muhit orqali qanday aniqlanishi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida muloqot jarayonida omonimlardan foydalanishning pragmatik jihatlari ham ko‘rib chiqilib, ular orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarni bartaraf etish usullari tahlil qilindi.

Shuningdek, turli misollar asosida omonimlarning qo‘llanish xususiyatlari o‘zaro solishtirildi va ularning semantik hamda kommunikativ jihatlari qiyosiy yondashuv orqali o‘rganildi. Ushbu metodologik yondashuv yapon tilidagi omonimlarning nutqdagi o‘rni va ularni to‘g‘ri tushunishga xizmat qiladigan asosiy strategiyalarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yapon tilida omonimlar til tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi[1]. Tilning fonetik tizimi sodda va bo‘g‘inlar soni cheklanganligi sababli bir xil talaffuzga ega bo‘lgan, ammo turli ma’noni anglatadigan so‘zlar ko‘plab uchraydi. Bu esa muloqot jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Shu sababli yapon tilida omonimlardan foydalanishda bir qator nutqiy strategiyalar qo‘llaniladi[2]. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir: kanji belgilaridan foydalanish orqali ma’nolarni farqlash, kontekst asosida ma’noni aniqlash, intonatsiya va ovoz ohangi yordamida ma’no farqini ko‘rsatish hamda zarur hollarda qisqa izoh berish. Bundan tashqari, omonimlar yapon tilida nafaqat kommunikativ vosita, balki madaniy va estetik hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi. Adabiyot, reklama va kundalik nutqda omonimlar yordamida so‘z o‘yinlari yaratilib, nutqning ifoda imkoniyatlari yanada boyitiladi. Shu jihatdan qaraganda, omonimlarni o‘rganish yapon tilining semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Kelgusida bu mavzuni yanada kengroq lingvistik va pragmatik tadqiqotlar asosida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Mazkur maqola yapon tilidagi omonimlarni o‘rganib, ularni nutqda ishlatish strategiyalarini ko‘rib chiqadi. Yapon tili fonetik jihatdan soddaligi ya’ni bo‘g’in va tovushlar soni cheklanganligi sababli omonimlardan – o‘qilishi va ba’zan yozilishi bir xil lekin ma’no jihatdan farqlanadigan so‘zlardan keng foydalaniladi. Shu bois nutqda tushunmovchiliklar paydo bo‘lmasligi uchun bir qancha maxsus usullar qo‘llaniladi. Misol uchun keng tarqalgan strategiyalardan biri 漢字(kanji)lar yordamida farqlash, kontekst orqali aniqlash, ohang yoki ovoz tonining past-balandligi va kichik izoh berib o‘tish kabi yo‘llar orqali omonimlardan muloqotda to‘g’ri foydlanish tushuntiriladi. Bundan tashqari, madaniyatning muloqotni shakllanishidagi ta’siriga alohida urg’u qaratiladi.

Resume. This article examines homonyms in the Japanese language and analyzes the strategies used to employ them effectively in speech. Due to the phonetic simplicity of Japanese–specifically the limited number of syllables and sounds–the language contains a large number of homonyms, that is, words that share the same pronunciation and sometimes the same spelling but differ in meaning. Therefore, in order to prevent misunderstandings in communication, several specific strategies are commonly used. For instance, one widely applied strategy is distinguishing meanings through the use of kanji (漢字) characters. Other strategies include identifying the intended meaning through context, relying on pitch accent or variations in voice tone, and occasionally providing brief explanations to clarify the meaning. Furthermore, the article places particular emphasis on the influence of culture on the formation and functioning of communication, highlighting how cultural factors shape the way homonyms are used and understood in Japanese discourse.

Резюме. Данная статья рассматривает омонимы в японском языке и анализирует стратегии их эффективного использования в устной речи. Из-за фонетической простоты японского языка – в частности, ограниченного количества слогов и звуков – в нём существует большое количество омонимов, то есть слов, имеющих одинаковое произношение и иногда одинаковое написание, но различающихся по значению. Поэтому для предотвращения недоразумений в процессе коммуникации обычно используются несколько специфических стратегий. Например, одной из широко применяемых стратегий является различение значений посредством использования иероглифов кандзи (漢字). К другим стратегиям относятся определение предполагаемого значения через контекст, использование различий в высотном акценте (pitch accent) или интонации, а также в некоторых случаях краткое пояснение значения для его уточнения. Кроме того, в статье особое внимание уделяется влиянию культуры на формирование и функционирование коммуникации, подчёркивая, что культурные факторы оказывают значительное влияние на то, каким образом омонимы используются и понимаются в японском дискурсе.

1 Kindaichi H. The Japanese Language. Tokyo: Tuttle Publishing, 2011. – 288 p. Martin S. A Reference Grammar of Japanese. New Haven: Yale University Press, 1975. – 1200 p. Shibatani M., Miyagawa S., Noda H. The Handbook of Japanese Linguistics. Oxford: Blackwell, 2006. – 600 p.

2 Shibatani M., Miyagawa S., Noda H. The Handbook of Japanese Linguistics. Oxford: Blackwell, 2006. – 600 p.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ТЕЛБА ОБРАЗИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида)

Шофиев Обиджон Бахтиёрович,
Термиз давлат университети мустақил изланувчиси,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори

